

MUSIQIY MASHG`ULOTLAR JARAYONIDA IJRO BADIYILIGIGA ERISHISHDAGI INDIVIDUAL KOMPETENTLIKNING NAZARIY BOSQICHLARI

Raimova Umida Daniyarovna

Navoiy shahar 1- son BMSM o`qituvchisi

Urakova Nasiba Muxammadiyevna

Navoiy shahar 1- son BMSM o`qituvchisi

Normuminova Gulmira Komiljonovna

*. Navoiy Ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi
o`qituvchisi*

Annotatsiya: *Musiqiy mashg`ulotlar jarayonida ijro badiiyiligiga erishishdagi individual va tipologik kompetentlikning nazariy bosqichlari yoritilgan*

Abstract: *Theoretical stages of individual and typological competence in achieving performance artistry during musical training.*

Kalit so'zlar: *Garmoniya, qobiliyat, kuy, lad, ritm, faktura, janr.*

Key words: *Harmony, ability, melody, mode, rhythm, texture, genre.*

Musiqiy mashg`ulotlar jarayonida ijro badiiyiligi ustida ishlash va uni rivojlantirish jarayoni nihoyatda muhim bo`lib, uning amaliy va nazariy takomillashuvi asosida birinchi navbatda musiqiy qobiliyat ham mustahkamlanib boriladi. Qobiliyat bu ma`lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning subyektiv omili hisoblanuvchi shaxsning individual xususiyatidir.¹ Badiiy ijroning mustahkamlanishi ritm xissining mukammal darajasiga bog`liq bo`lib, poliritmik fakturalarni anglash an`anaviy xonandalik mutaxassisligi o`quvchilari uchun ham muhim sanaladi va maqsadli ijro mashg`ulotlarining boshqa musiqiy fanlar bilan, ya`ni musiqa tarixi, musiqa adabiyoti, nazariya, garmoniya, musiqiy asarlar tahlili, konsert ijro amaliyoti bilan uzviy bog`liq holda amalga oshirilishi nihoyatda muhim sanaladi. Bunda kvintolli, sekstolli, septolli notatsiyalarni nazariy tahlil qilib, ularni aniq tasniflash jarayoni bosqichma- bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.



Musiqa mashg`ulotlarida jamoaviy va individual tarzda badiiy ijro ko`nikmalarini shakllantirish, bevosita xonandalikdagi ovoz imkoniyatlari bilan bog`liq bo`ladi. "Xonandalik ovozi" tushunchasi insonning kuylash qobiliyati bilan bog`liq nutqdan farqli o`laroq,

¹ Qodirov R. Musiqa psixologiyasi. –T., Musiqa, 2015. 5-bet.

xonandalik ovozi tovushlari aniq balandlikka ega, uzoq davom etishi mumkin. Ular unlilarda namoyon bo'ladi. Xonandalik ovozidan inson bolalikda musiqiy eshitish va ovoz apparati rivojlanishi darajasiga ko'ra foydalana boshlaydi. Maishiy (qo'yilmagan) va kasbiy (professional qo'yilgan) xonandalik ovozi farqlanadi. Ovozni yo'lga qo'yish deb uni professional qo'llash maqsadida moslashtirish va rivojlantirish tushuniladi. Yorqinlik, go'zallik, jarang kuchi va davomiyligi, diapazon kengligi va toliqmaslik, noziklik kabi sifatlar, ko'p jihatdan ovoz apparati tabiiy xossalari bilan belgilanadi va ovozni qo'yish jarayonida rivojlantirilishi mumkin. Xonandalik ovozini belgilovchi sifatlar - tembr go'zalligi va tovushni uzoq tutib tura olish. Ovoz tarangi dumaloqligi va yumshoqligi obertonlari kuchlanishiga bog'liq. Yuqori va past xonandalik formantalari, shuningdek vibrato (sekundiga 5-6 martali pulsatsiya) ovozning go'zalligi va quyiluvchan xarakterini belgilaydi. Xonandalik ovozining muhim sifati uning kuchidir. Ovoz tabiatan registrarga ega. Registr deb, tovushlarning tembri bo'yicha bir xillik qatori tushuniladi, u yagona fiziologik mexanizm bilan hosil qilinadi. Erkaklar ovozida diapazonning pastki qismida ko'krak va yuqori qismida faltset registr farqlanadi.²

Badiiy ijro bu avvalo dinamik belgilar, nyuanslar, temp, ritm, shtrixlarning asar xarakterini to'laqonli mukammal asosda namoyon bo'lishi hamda har tomonlama professional darajaga ega bo'lishi bilan o'z ifodasini topadi. Ma'lumki har bir musiqiy asar o'zining badiiy mohiyati va strukturaviy jihatiga ko'ra ma'lum garmonik tuzilmalardan tashkil topadi.



Bunda garmoniyani tushungan holda, lad va tonal mohiyatini anglab asar ijro etilsa yoki kuylansa, ijrochi va tinglovchi uchun konsert ijro darajasiga yetgan holdagi tushunarli, mukammal ijro hosil bo'ladi. Garmonik asosni to'liq tushuna olish orqaligina cholg'u ijrochisi va xonanda, badiiy ijro ustida erkin ishlay olish qobiliyatiga ega bo'la oladi.

² Qahharov N. Vokal asoslari. –T., Iqtisod- moliya, 2008, 6-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov R. Musiqa psixologiyasi. –T., Musiqa, 2015.
2. Qahharov N. Vokal asoslari. –T., Iqtisod- moliya, 2008.
3. Rahimov Q. Garmoniya bo`yicha mashq va masalalar to`plami. –T., Aloqachi, 2005.